

ISSN: 2181-3523

Scientific Journal



idea

Innovative Development in Educational Activities

Social Sciences & Humanities

2024/5



OPENIDEA.UZ

VOLUME 3, ISSUE 5

ISSN 2181-3523
VOLUME 3, ISSUE 5
MARCH 2024



<http://openidea.uz/>

INNOVATIVE DEVELOPMENT IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

VOLUME 3, ISSUE 5, MARCH, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

I. Urazbayev

Professor, Doctor of Biological Sciences, Gulistan State University

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

D. Sarimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Institute of the Chemistry of Plant Substances

D. Hikmatov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Bukhara Institute of Engineering and Technology

A. Karimov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Karshi Institute of Engineering and Economics

Sh. Rajabov

Doctor of Philosophy (Phd) in Philosophical Sciences, International Islamic Academy of Uzbekistan

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823517>

WORKING WITH MULTILEVEL ESP GROUP STUDENTS

Mirzokulova Xursanoy Ne'matjonovna

The Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
Senior lecturer of Language Teaching Department of the academy
mirzakulova.hursanoy86@gmail.com

ANNOTATION

ESP stands for "Working with multilevel ESP group students" and refers to the teaching and learning of English for a specific purpose or field, such as business, medicine, or engineering.

Heterogeneous and Homogeneous groups

Heterogeneous groups are “groups containing students of different ability levels” (Richards, 2002, p. 1).

Homogeneous groups are “groups composed of students with similar abilities” (Richards, 2002, p. 1).

Glossary:

cross-ability learners (varying degrees of ability or competence)

groupings (ways of putting students together: cross-ability, like-ability, special needs, compatibility)

like-ability groups (groups of students working together who share similar levels of ability or competence)

multi-level groups (learn and study together in one room, despite having varying levels of abilities)

Understanding multi-level groups

Characteristics of **Heterogeneous** Groups

- Diverse language proficiency levels
- Varied educational backgrounds
- Different learning styles and preferences

Characteristics of **Homogeneous** Groups

- Similar language proficiency levels
- Common educational backgrounds
- Consistent learning styles and preferences

Problems in teaching multilevel student groups

- Individualized needs may be challenging to address
- Pace variations among learners
- Potential frustration and demotivation for lower-level students
- Assessment difficulties

Advantages of teaching multi-level students groups

“Sometimes it is hard to believe that there are advantages to a multilevel class, but in fact there are some, and it is our job to make the most of them” (Bell, 2004, p. 28).

- **Increased diversity of perspectives** (learn from each other’s unique experiences)
- **Opportunities for peer learning** (mentoring and supporting)
- **Real-world simulation of workplace diversity** (diverse professional environments)
- **Enhanced motivation through collaborative learning** (a sense of community and shared goals)

Using multilevel student groups as an advantage

“Do remember to share the load with your students. As they bring so much to the classroom: they can understand to challenges you face, contribute to solutions, and cooperate in ways that will really help you, if you encourage to do so” (Bell, 2004, p. 28).

- Implementing peer-assisted learning strategies
- Promoting a supportive learning environment
- Encouraging collaboration and teamwork
- Fostering a sense of community within the class

Tips on how to teach multilevel student groups

- Effective strategies include:

Differentiated instruction techniques (tailoring teaching methods)

- Flexible lesson planning and pacing (adapting to the varied learning speeds and needs of students)
- Incorporating various learning modalities (addressing varied learning styles)
- Regular assessment and feedback to guide instruction (Continuous assessment and feedback)

Adapting authentic materials for low-level students

Practical methods include:

- Simplifying language without compromising content
- Providing additional support materials, such as glossaries and summaries
- Breaking down complex concepts into manageable chunks
- Incorporating visuals and multimedia to aid comprehension

Online Tools for Adapting Authentic Materials

www.rewordify.com

Free, online software that improves reading, learning and teaching. This site can:

- Simplify difficult English
- Teach words
- Save time and engage learning
- Improves learning outcome

Let's check what it does and how it works

Original text: Chemists make device to destroy planet-warming methane pollution (snexplores.org)

Enter English text or a web page to simplify:

Now, scientists have found a new method to quash that gas. The approach could slash emissions from places like livestock barns and landfills – and bring the planet one step closer to slowing global warming.

Methane is a carbon atom bound to four hydrogen atoms. A single molecule of it is 80 times better at trapping heat in the atmosphere than a molecule of carbon dioxide. That's why cutting methane emissions is a key step to decarbonization – and cooling Earth's climate.

Rewordify text

Results

The screenshot shows the rewordify.com interface. At the top, there are tabs for 'Rewordified text', 'Stats', 'Show stop', 'Vocab lists', and 'Parts of speech'. A dropdown menu for 'quash' is open, showing a speaker icon and the text 'Log in to save & learn this word!'. Below the tabs, the original text is shown with highlighted words: 'quash', 'slash', 'emissions', 'livestock barns', 'landfills', 'global warming', 'Methane', 'carbon atom', 'hydrogen atoms', 'molecule', '80 times', 'trapping heat', 'atmosphere', 'carbon dioxide', 'cutting methane emissions', 'decarbonization', and 'cooling Earth's climate'. The reworded text is shown below, with 'quash' replaced by 'stop', 'slash' by 'things sent out or given off', 'livestock barns' by 'farm animals', 'landfills' by 'places where garbage and trash are dumped', and 'global warming' by 'worldwide warming'. A word definition for 'cutting' is shown in a green box, listing its adjective and noun meanings.

quash

Rewordified text Stats Show stop Vocab lists Parts of speech

Log in to save & learn this word!

Now, scientists have found a new method to **stop** that gas. The approach could slash **(things sent out or given off)** from places like **farm animals** barns and **(places where garbage and trash are dumped)** – and bring the planet one step closer to slowing **worldwide** warming.

Methane is a carbon atom bound to four hydrogen atoms. A single molecule of it is 80 times better at trapping heat in the atmosphere than a molecule of carbon dioxide. That's why cutting methane **(things sent out or given off)** is a key step to decarbonization – and cooling Earth's climate.

cutting

Adjective:

- (cutting; raw) unpleasantly cold and damp
- (keen; knifelike; piercing; stabbing; lancinate; lancinating) painful as if caused by a sharp instrument
- (edged; stinging) (of speech) harsh or hurtful in tone or character

Noun:

Tips:

- ▶ Click the highlighted words to learn them and hear them. Click the non-highlighted words to learn them and hear them.
- ▶ Change how you learn on the [settings page](#). Also, you can print [vocab lists](#), [quizzes](#), and [flashcards](#).
- ▶ When you log in, everything you rewordify is [auto-saved and can be easily shared](#).

Assessing multilevel groups students

Tips to conduct assessments that accommodate diverse language proficiency:

- Use diverse assessment methods (catering to different learning styles and language skills)
- Flexible assessment criteria (considering the diverse abilities of the students)
- Differentiated tasks (designing multiple versions of a task)
- Adapted authentic materials (easifying and simplifying)

Conclusion

Teaching multilevel groups is not a problem to be solved but an opportunity to develop a dynamic and inclusive community-style classroom where diverse perspectives and collaborative learning are fostered.

REFERENCES (IN ORDER APPEARANCE)

Richards, Jack C. (2002). Longman dictionary of language teaching and applied linguistics. London; New York: Longman, 2002.

Bell, J.S. (2004). Teaching Multilevel Classes in ESL (2nd ed.). Pippin Publishing Corporation.

www.rewordify.com

www.newsinlevels.com

www.breakingnewsenglish.com

www.cambridgeenglish.org/test-your-english/

www.mentimeter.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823530>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA AYOLLAR HUQUQLARI

Ulug‘bek Rahmanov Xabibullayevich

“Qishloq xo‘jaligi huquqi va agroturizm” kafedrası mudiri

Email: ulugbekrahmanov@umail.uz

Jo‘rayeva Farangiz Bahrom qizi

Yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi

Email: farangizjorayevaaa@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilish va uni jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish, shuningdek, Gender tenglikni o‘rnatishga qaratilgan islohotlar hamda amalga oshirilayotgan tadbirlar o‘z aksini topgan.

***Kalit so‘zlar:** Gender tenglik, ijtimoiy himoya, harakatlar strategiyasi, ayollar huquqlari, qonuniy manfaatlar, ijtimoiy imtiyozlar.*

KIRISH

Ayollar va qizlar yer shari aholisining teng yarmini tashkil qiliadi. Bu sayyoramiz salohiyating teng yarmi deganidir. Ya‘ni, insoniyat hayotida nimaiki sodir bo‘lsa yo bo‘lmasa, uning yarmi ayollarga bo‘g‘liq-ularning ishtiroki yo ishtiroksizligiga. Shu sababli ham ayollar huquqlarini ta‘minlash va gender tenglik masalasi insoniyatning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Zero, bu jamiyatda tinchlik, uyg‘unlik, insoniy potentsiallik to‘liq amalga oshirishi va barqaror rivojlanishiga doir masaladir. O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan zarur chora tadbirlar ko‘rilmoqda. Binobarin, bu yuritilayotgan imkoniyatlar jamiyatda ayollarning o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashdigan, yuksak marralarni zabt etadigan teng huquqli jamiyat qurishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, ularning salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta‘lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida Milliy Markaz tashkil qilindi. Uning maqsadi: xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash,

onalik va bolalikni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish; xotin-qizlar orasida tazyiq, zo'rovonlikka uchrash hamda odam savdosining qurboni bo'lish holatlarining oldini olish; xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish hamda ularni ilm-fan sohasiga jalb qilish. Natijada, oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda kunduzgi, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlari to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish yo'lga qo'yilib, ushbu maqsadlar uchun bugungi kungacha 139 mingdan ortiq talaba xotin-qizlarga 1 trln 300 mlrd so'm miqdorda foizsiz ta'lim kreditlari berildi.

Usullar va manbalar

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, Suqrot, Arastu, Aflotun, kabi yunon faylsuflari tenglik xamda adolat hukm surgan ideal jamiyat va davlat haqida mushohada yuritar ekanlar, ayollar, va erkaklar huquqlarining teng ta'minlanishi masalasiga alohida to'xtalganalar. "Eng yaxshi qonunlar-barchaning tengligini kafolatlagan qonunlardir" degan g'oyani ilgari surar ekan, yunon olimi Antifont ta'kidlaydi: "Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi".[1]

O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarning haqorat qilinishining oldini olish maqsadida Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMT ning "Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasiga qo'shildi. Jamiyatda ayollar teng huquqli bo'lishi uchun bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Masalan, Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida Gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha Komissiya tuzildi. Parlamentning yuqori palatasida Xotin-qizlar va Gender tenglik masalalari Qo'mitasi, quyi palatasida Oila va ayollar masalalari hal qilish bo'yicha Komissiyasi o'z faoliyatini boshladi. [2] O'zbekiston Respublikasida barcha fuqorolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Baxtimiz qomusi hisoblangan Konstitutsiyamizning 14-bobi "Oila" deb nomlangan va oila, onalik va bolalikni himoya qilishga bag'ishlangan. Erta nikoh tuzilishining oldini olish maqsadida Fuqorolik kodeksning 15- moddasida erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi o'n sakkiz yosh deb belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki ayollarni erta turmushga berishga yo'l qo'yilmaydi.[3] O'zbeklar hayotida ayollar qadimdan hamisha e'zozlanib, qadrlanib kelingan. Mustaqillikka erishilgan keyin ham, avvalgi an'analarga sodiq qolgan holda, bu masalaga alohida e'tibor qaratildi.

NATIJA

O'zbekistonda 1998-yil "Oila yili", 1999- yil " Ayollar yili ", 2012-yil " Mustahkam oila yili", 2016-yil " Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi, shuningdek, 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-2021 yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha “Harakatlar strategiya”sining qabul qilinishi mamlakatimizda bu borada aniq maqsadga yo‘naltirilgan izchil siyosatni rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlar va yangi bosqichda olib borishiga yo‘l ochildi. Bugungi kunga kelib xotin-qizlar faolligini oshirish va himoyasini ta‘minlashda quyidagilar bu siyosatning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

Ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari bajarilishini ta‘minlash hamda bu boradagi huquqiy asosni yanada takomillashtirish choralarini ko‘rish;

Ayollar bandligini ta‘minlash yuzasidan samarali choralar ko‘rish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirishda har tomonlama yordam ko‘rsatish, ayollar o‘rtasida ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish. [4] Ayollarga ko‘plab ijtimoiy imtiyozlar joriy qilindi. Jumladan Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz xotin-qizlarning muommolarini aniqlash, bartaraf etish va nazorat olib borish bo‘yicha “ayollar daftari” tashkil etilgan. Bu esa o‘z o‘rnida ayollarning bandligini ta‘minlash, ularga moddiy yordam ko‘rsatish, turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash, ularga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatishni ta‘minlashga yordam berdi. Bundan ko‘rinib turibdike ayollarga imkoniyatlar ko‘p. O‘zbekistonda ayollar huquqlarini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun huquqiy asos yaratilgan.

MUHOKAMA

Inson huquqlariga oid 100 ga yaqin qonunlarimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli e‘tirof etilgan. O‘zbekistonda xotin-qizlarni e‘zozlash, jamiyatdagi rolini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Shu maqsadda xotin-qizlar manfaatini ifodalovchi qator huquqiy islohotlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 30-avgustdagi “ Bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi 493-sonli hamda “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish haqida” 501-sonli qarorlar qabul qilindi. Prizedentimiz Gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettirilishi haqida so‘z yuritdi va ularni amalga oshirish maqsadida O‘zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes forumini o‘tkazishni rejalashtirayotgani haqida so‘zladi. [5] Jamiyatda ayollar rolini oshirish uchun asosan

diniy va dunyoviy fanlar chuqur o'qitiladigan xotin-qizlar maktablar tashkil qilish kerak va bundan tashqari ularning ta'lim olishi uchun ko'plab imkoniyatlar berish kerak. Masalan, imtoyozli tartibda xorijiy davlatlarda o'qish imkoniyatini yaratib berish kerak shuningdek, ayollarning vaqtini samarali o'tqazish maqsadida bo'sh ish o'rinlarini yartish, tadbirkorlik qilish uchun kreditlar ajratish, ularning uy-joy olishlari uchun turli xil subsidiyalar tashkil qilinishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, jamiyatda ayollar rolini oshirish, ularni turli xil tazyiqlardan himoya qilish maqsadida kun sayin ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar natijasida, xotin-qizlarning huquq erkinliklari himoya qilinmoqda va turli sohalarda ishlashga imkoniyatlar yaratilmoqda. Biz buni ta'lim, fan, madaniyat, san'at sohasida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida senatorlik lavozimida o'z faoliyatini olib borayotgan Tanzila Kamalovna Narbayeva misolida ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. Soatova, F. Tojiyeva *Ayollarga xuquqiy madad*. T-2021, 7-9-betlar
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, *Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaz* T: 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *Farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami)* T: 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining *"Xotin-qizlar muommolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi qarori 2022.
5. Q.X. Abdurahmonov. *Aholini ijtimoiy muhofaza qilish*. T: 2010.
6. Sh.M. Mirziyoyev. *BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasi*. 2021.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823544>

MICE-TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH SALOHIYATI

Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura talabasi

Matkabulova Dilorom Xalilullayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti p.h.d dotsenti

ANNOTATSIYA

Turizm sohasi bir muncha o'zgaruvchan sohalar sirasiga kirib tarmoqlari orasida o'sish tendensiyalari o'zgarib turadi. So'nggi bir necha yillarda turizm ommaviy tadbirlar yo'nalishi bir muncha o'sdi. Bir qancha turizm sohasi rivojlangan davlatlar orasida sport tadbirlaridan tortib musiqa festivallarigacha, konferensiya yig'ilishlaridan to'ylargacha, turizm tadbirlari sanoatning ajralmas qismiga aylandi. Hozirgi zamonamizda sayohatchilar yoshlaridan qat'iy nazar ommaviy tadbirlarga qatnashish ko'rsatkichlari bir munchaga ortganini ko'rishimiz mumkin. Turizm sohasida ommaviy tadbirlarni tashkil etish aholi uchun daromad keltirishi, yangi ish o'rinlarini yaratishi va mahalliy madaniyat va an'analarni targ'ib qilishi va mamlakatning yalpi ichki mahsulotida salmoqli darajada o'sishga erishish mumkin.

***Kalit so'zlar:** Ommaviy tadbirlar, turizm, konferensiya, seminar, festival, simpozium.*

Introduction: Dunyoda business va ishbilarmonlar soni kundan kunga oshib bormoqda bu esa butun dunyoda MICE turizmi ham o'z navbatida rivojlanishiga olib keldi.

2008-2014-yil oktabr davri uchun qidiruv natijalariga asoslangan SCOPUS natijalari "tadbir" va "turizm" qidiruv so'zlari yordamida 1000 dan ortiq maqolalar haqida hisobot berish adabiyotlarda mazkur sohaga e'tibor tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu sababli, mazkur maqolaning maqsadi **dunyoda va O'zbekistonda MICE turizmining rivojlanishi tahlilini** tushunishimizga yordam beradigan malumotlarni tahlil qilishdan iborat.

MICE (uchrashuv, rag'batlantirish, konferensiya, tadbir) ya'ni bu uchrashuvlar, rag'batlantirishlar, konventsiyalar va ko'rgazmalar, shu jumladan konferentsiyalar, kongresslar va ko'rgazmalar tashkillashtiruvchilar yangi turizm yo'nalishi ochildi va

shu maqsadda ular rivojlanayapti. Bu esa turizm sanoatining muhim yo‘nalishlaridan ko‘ra biznesga ko‘proq e’tibor qaratishiga olib keldi. MICE turizmi 115 dan ortiq mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan, uning eng foydali tomonlaridan biri daromad olish va ish bilan band qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini o‘shishiga qaratilgan turizm turi hisoblanadi.

Jahon sayyohlik va turizm kengashi kelgusi o‘n yil ichida biznes turizmining yillik aylanmasi 3,7 foizga o‘shishini va 2016 yildagi 1,15 milliard dollardan 2027yilda 1,7 milliard dollargacha o‘shishini taxmin qilmoqda [1]. Ushbu maqolani o‘rganish obekti dunyodagi va O‘zbekistondagi MICE kabi turizm bo‘limi doirasidagi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadqiqot mavzusi Silk Road Destinations sayyohlik kompaniyasi misolida O‘zbekistonda biznes va MICE turizmining rivojlanish istiqbollari va to‘siqlari. Maqsad tadqiqot muammosi xalqaro turizmning o‘ziga xos sohasi sifatida MICE turizmining rivojlanishini tahlil qilishning past darajasi bilan bog‘liq. O‘zbekiston hali ham boshlang‘ich sayyohlik maskani bo‘lib, u jahon MICE turizm bozorida deyarli mavjud emas. MICE imkoniyatlari va uning O‘zbekistondagi rivojlanishidagi to‘siqlarga oid tadqiqotlar kam, shuning uchun biz tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar O‘zbekistonning ushbu turizm sohasidagi istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotni o‘tkazish uchun muallif Jahon sayyohlik va Turizm kengashi iqtisodiy ma’lumotlaridan foydalangan holda o‘z takliflarini kiritgan.

Ushbu maqola orqali butun dunyoda MICE turizmini tadqiq qilish va uni dam olish turizmi bilan farqi, keltiradigan foydasi, tahliliy jihatdan mualliflar tomonidan o‘rganilgan.

Middlton va Klark ta’rifiga ko‘ra “biznes turizmi bu – ish bilan bog‘liq holda tartibsiz sayohatdir” va Svarbruk va Xornerga fikrlariga ko‘ra “ biznes turizmi – ish bilan bog‘liq holda sayohat qilishdir” [2]. Dam olish maqsadida dunyo bo‘ylab ko‘plab insonlar hordiq chiqarish uchun kezishadi ularni asosini oilalilar, juftliklar, bolali oilalar, yolg‘iz kishilar yoki do‘stlar bilan sayohat qiluvchi kishalardir. Lekin MICE turizmida esa ular yuzlab hatto minglab kishilarni o‘z ichiga oladi. GBTA ma’lumotlariga ko‘ra har yili 480 milliondan ortiq korporativ sayohatlar amalga oshiriladi. Tajribali yoshi kattaroq tashkilotchilar yiliga 12 ta, yoshroq tashkilotchilar

14 ta sayohatni amalga oshiradilar, bu esa o‘z navbatida MICE turizmini rivojlanganligidan dalolatdir [2]. BJTT ma’lumotlariga ko‘ra 2006-yilda 4,4 mln biznes vakillari safarda 5100\$ sarflashgan, shaxsiy maqsadlarda sayohat qilgan 17,8 mln kishi esa 3800\$ mln sarflashgan [1]. Shuni takidlash joizki boshqa turizm turlari kabi MICE turizmi mavsumga bog‘lanib qolgani yo‘q. Bu turizm turi vaqt ham mavsum ham tanlamaydi.

Metod: tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Dam olish turizmi va MICE turizmini bir-biridan farqi: (1- jadval)

	Dam olish turizmi	MICE turizmi
Ishtirokchilar	Turistlar	Professionallar, mutaxassislar, ishbilarmonlar. Baʼzan hamkorlar hamrohlik qilishi mumkin
Guruhlar hajmi	Individual yoki kichik guruh	Millongacha ishtirokchilar boʻlishi Mumkin
Ishtirokchilarning asosiy maqsadi	Oʻyin-kulgi, dam olish, yanginarsalarni oʻrganish, manzillar va yangi madaniyatlarni oʻrganish	Biznes masalasida yoki maslahat almashish,
Toʻlovchi	Turist	Ish beruvchi yoki tashkilot
Qaror qabul qiluvchi	Sayyohlar, sayyohlik ulgurji savdogarlari, sayyohlik agentlari	Uchrashuv tashkilotchisi/ragʻbatlantirish/konferentsiya/tadbir
Vaqt	Bayramlarda yokimaxsus kunlarda	Yilning xoxlagan vaqti
Asosiy iqtisodiy taʼsir	Toʻgʻridan toʻgʻri xarajatlar	Investmenlar yoki biznesmenlar

Maʼumotlarga qaraganda butun dunyoda ishlaydigan kompaniya xodimlari yiliga 5 martan koʻproq business uchrashuvlar, koʻrgazmalar, konfirensiyalarda qatnashishadi. Bu esa kompaniya ishchilariga juda yoqadi va ish samaradorligini oshiradi. Business sayohatga chiqan kishilarni kun davomida 20% vaqti boʻsh boʻladi, ular esa bundan foydalanib sayohat qilishga vaqtlari boʻlarkan yaʼni business maqsadida borgan insonam oʻsha borgan joyini sayohat qilishi mumkin boʻladi.

Ishtirokchilar soniga qarab Kongress tadbirlarini quyidagilarga boʻlish mumkin: Kichik (250 dan kam ishtirokchi);

Oddiy (250 dan 1000 ishtirokchigacha); Katta (1000 dan ortiq ishtirokchilar).

Hozrigi kunda Oʻzbekistonda MICE turizmini rivojlanishiga bir qancha omillar taʼsir koʻrsatmoqda, bularga: mehmonxonalarining kongress zallari dunyo standartlariga javob bera olishligi, transport, yoʻl infratuzilmasining yaxshi emasligi, joylashtirish masalasi katta mehmonxonalarining yoʻqligi, servis xizmat koʻrsatishning yuqori darajada emasligi va kadrlar masalasi kabi muammolar bor. Toshkentdagi toʻrtta asosiy xalqaro aeroport, Samarqand, Buxoro va Urganch qayta qurildi, mamlakatning asosiy avtomagistrali yangilanmoqda. Bugungi kunda Oʻzbekiston havo yoʻllari muntazam faoliyat yuritmoqda, dunyoning 40 dan ortiq yetakchi davlatlariga reyslar Rossiya, Belarus, AQSh, Italiya, Germaniya, Fransiya, Latviya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Tailand, BAA, Xitoy, Malayziya, Koreya, Singapur, Turkiya, Isroil, Ozarbayjon, Qirgʻiziston va Qozogʻiston kabi davlatlarga mavjud. Ammo

O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish istiqbollari mavjud faqat uni rivojlantirish va shakllantirish kerak. Buning uchun MICE turistik korxonalarini ko‘proq ochish va avvalambor ichki biznesni rivojlantirishda qo‘llash keyin esa raqobat muhitini yaratgan holda dunyo standartlariga chiqib olish zarur. Lekin mehmonxona sonlari, undagi kongres zallar, restoranlar, malakali kadrlarni tayorlash va ularni biznes turizmiga yo‘naltirish kerakligini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko‘rsatilgan. O‘zbekiston o‘zining betakror obidalari, milliy taomlari va go‘zal tabiatini o‘zida mujassam etgan diyor, faqat buni to‘g‘ri rivojlantirish zarur.

RESULTS

O‘zbekiston turizmi rivojlanish holatini tahlili ko‘rib chiqilsa unga ko‘ra o‘tgan 8 oyda yurtimizga xorijdan 4 million 300 ming nafar turist kelgan, ulardan 1 milliard 400 million dollar tushum bo‘lgan. Qo‘shimcha dam olish kunlari va chegirma berilgani natijasida ichki sayyohlar soni 15 million nafarni tashkil qilib, o‘tgan yilgiga qaraganda 2 barobarga o‘sgan.

Turizm infratuzilmasi ham izchil rivojlanmoqda. Joriy yilda 15 mingta yangi mehmon o‘rinlari tashkil etilib, ularning soni 137 mingtaga yetdi. 540 ta dam olish va ko‘ngilochar maskan barpo etildi, 70 ta turizm marshruti ochildi.

Shuningdek, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi, yangi 23 ta samolyot olib kelindi, 20 ta xalqaro va 6 ta ichki qatnov yo‘lga qo‘yildi. Samarqand aeroportida haftalik xalqaro reyslar 46 tadan 85 taga ko‘paydi. 1 ming 300 ta zamonaviy avtobus xarid qilinib, 38 ta yo‘nalish ochildi.

2022-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravarga oshgan (5,2 million, soha eksporti – 1,6 milliard dollar). Ichki turizm dasturlari doirasida 11,5 million, shundan 1,5 million ehtiyojmand aholi, yoshlar va keksalar sayohatlari tashkil etilgan. Qayd etilishicha, Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani qo‘shimcha 2 million sayyoh jalb qilish imkonini beradi. Bu yili O‘zbekistonda Butunjahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi yig‘ilishini o‘tka- zishga katta tayyorgarlik ko‘rilayotganligi.

Bundan tashqari, Samarqand 2023-yilgi Butunjahon turizm poytaxti maqomini olgani ham bu boradagi ishlarning yuqori natijalaridan biri ekani ta’kidlashimiz mumkin. Bu borada olib borilgan chora-tadbirlar katta natijalar berishni boshlagani yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlarda o‘z aksini topib turibdi.

O‘zbekistonda turizmning barcha turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligi mutaxassislar tomonidan ta’kidlanmoqda. Shu bilan birga, hozirgi paytda mamlakatimizda turizmning samaradorligi yuqori baholangan bir turi bu, MICE – turizmi kabi turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. So‘nggi yillarda mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi biznes, madaniy va ilmiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda,

bunda biznes turizmining ahamiyati ham katta bo'lmoqda. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon bozoriga integratsiyalashuvini ham biznes turizmini taraqqiy ettirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ishbilarmonlik aloqalari, texnologiyalar va ma'lumotlar almashinuvi, yangi bozorlarni o'zlashtirish, investitsiyalar va qo'shma loyihalar uchun sheriklar izlash, kompaniyalarni reklama qilish, kadrlarni o'qitish va korporativ madaniyatni joriy etish – bu biznes turizmidir. Shuningdek, biznes turizmi ko'rgazmalar va kongresslarda qatnashish vositasida kompaniyalarni birlashtirish va rivojlantirish mexanizmlaridan biridir. O'zbekistonda so'nggi yillarda turizmning MICE aspekti jadal rivojlanayotganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi bu borada “Xalqaro kongress va konferensiya assotsiatsiyasi (ICCA)” bilan hamkorlikda zarur me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish ustida ish olib bormoqda. Bunday hamkorlik respublikada MICE turizmi yo'nalishini rivojlantirish va ishbilarmonlik sohasida “O'zbekiston” brendini ilgari surish imkonini beradi. Shu bois, O'zbekistonda biznes-turizm salohiyatidan foydalanish uchun infratuzilmani yaratish, davlatning samarali yordami, ishonchli statistik ma'lumotlar, professional kadrlarni tayyorlash, shuningdek, mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish zarur [3].

MICE turizmning ilmiy-uslubiy jihatlari: MICE – bu “Meetings, Incentives, conferences, exhibitions (Uchrashuvlar, Rag'batlantirishlar, Konferentsiyalar, Ko'rgazmalar)” so'zlarining bosh harflari orqali shakllantirilgan qisqartma hisoblanadi. Kongress turizmi asosan o'zi faoliyat olib borayotgan sektorlarda foyda keltirish maqsadida qilingan sayohat va tashkiliy faoliyatlar iborat.

MICEni ifodalovchi so'zlarning mazmuniga qaraydigan bo'lsak:

Meetings – Uchrashuvlar: kompaniyalarning yirik darajadagi biznes uchrashuvlarini, seminarlarini, sohaga oid treninglar kabi faoliyatlarini to'g'ridan-to'g'ri diqqatga sazovor markazlarda yoki sektor uchun geografik ahamiyat kasb etuvchi mintaqada-hududda o'tkazishni ustuvor hisoblashi yoki tashkil etishi MICE turizmining bir ko'rinishi bo'ladi.

Incentives – Rag'batlantirishlar (imtiyozlar): Kompaniyalar tomonidan ishlaydigan xodimlarning motivatsiyalarini (rag'batlarini) oshirish, unumdorlikni eng yuqori darajaga chiqarish maqsadida tashviqot qilish, motivatsiya faoliyatlarini tashkil etishdir.

Conferences – Konferentsiyalar: Muayyan maqsadga xizmat qiluvchi birliklar va uyushmalar kabi tuzilmalarning yoki sektor vakillarining tashkil etgan konferentsiyalari MICE turizmining konferentsiyalar qismini tashkil qiladi.

Exhibitions – Ko'rgazmalar: Yuqoridagilar bilan bir qatorda tashkil etilgan va yuzlab ishtirokchilarni mintaqaga jalb qilgan yarmarkalar faoliyatlari MICE

Turizmining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. MICE turizmi asosiy faoliyatdan olinadigan daromad bilan bir qatorda turli sohalarda har xil manfaatlarni kelishiga ham xizmat qiladi [3].

MICE turizmi professional Rag'batlantiruvchi sifatida manfaatdor tomonlarni yoki xodimlarni rag'batlantirish uchun sayohat qilishni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat zavq oladigan tadbir, balki ishbilarmon jamolarning maroqli dam olishi bo'lishi mumkin.

MICE manzilini yaratadigan eng muhim jihatlardan biri bu – turizm infratuzilmasidir. Dam olish va MICE biznes sayohati bir-biridan juda farq qiladi, lekin ikkalasi ham tashrif buyuruvchilarni qabul qilish uchun belgilangan manzilni talab qiladi va mehmondo'stlikdan tortib diqqatga sazovor joylar hamda ko'ngil ochar tadbirlargacha barchasi diqqat e'toborda bo'lishi lozim .

Infratuzilma haqida gapiradigan bo'lsak, MICE manziliga borish va sayohat qilishni osonlashtiradigan sifatli va zamonaviy transport tizimlari kerak. Tashrif buyuruvchilarni ya'ni mehmonlarning harakatlanishini osonlashtiradigan vakolatli va ishonchli jamoat transporti tizimli tashkil etish MICE sayohati va turizmi uchun muhimdir, chunki ko'p sayohatlar juda qisqa va samarali transport foydalangan holda mavjud vaqtni tejaydi va mehmonlarni qo'shimcha maroqli dam olishiga yordam beradi [4].

Discussion: Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, MICE turizmini rivojlantirishning asosiy jihatlari mamlakatda yaratilgan shart sharoitlar, o'shbu turizm turini tashkillashtirish subyektlari bu ixtisoslashtirilgan (tadbirlarni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi) tashkilotlar, ko'rgazma markazlari va MICE tadbirlarini o'tkazish maydonlaridir. Ular davlat va xususiy shakllarda faoliyat yuritadilar. Shunga qaramay, davlat ularni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishning istiqbolli turlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mahalliy va xorijiy turistlarning oqimini ko'paytirish maqsadida vazirlik va idoralar tomonidan muntazam ravishda madaniy-ko'ngilochar, sport, ko'rgazma va boshqa xalqaro tadbirlar tashkil etilib kelinmoqda. Biroq O'zbekistonning mavjud salohiyati va imkoniyatlariga qaramay, MICE turizmi bugungi kunda yetarli darajada rivojlanmagan. Respublikada turizmning ushbu turi faol bo'lishiga qaramasdan, sekinlik bilan rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi [4].

MICE turizmi dunyo bo'yicha korporativ tarmoq, kichik va o'rta biznes, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'sishi, shuningdek, innovatsiyalarning global internet tarmog'iga joylashtirilishi hisobiga ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdi. Jahon miqyosida turizmning jadal sur'atlarda o'sishi MICE turizmining kelajakda

yanada rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Shuningdek, tarmoq tashkilotchiligi bilan tashkil etiladigan global miqyosdagi uchrashuvlar davlatlardagi turizm sohasidagi kompaniyalar va xususiy shaxslarning faolligini oshirish bilan bir qatorda mamlakat aholi jon boshiga hisoblanadigan yalpi mahsulotning o‘shishiga hamda aholi turmush darajasining sifat jihatdan o‘shishiga olib keladi [5].

MICE sanoatining rivojlanishiga ta’sir etadigan asosiy omillar quyidagilardir²⁹:

- mehmonxona, transport, biznes, madaniy-ko‘ngilochar infratuzilma va logistika kompleksining rivojlanish darajasi;
- hududiy moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi;
- biznes tuzilmalarining axborot tizimining ochiqligi;
- hukumat tuzilmalarining jahon iqtisodiyotining o‘zgaruvchan voqeliklariga moslashuvchanligi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda **MICE** turizm yetarli darajada rivojlanmaganligi va turizmning ushbu turi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot shakllanmaganligi sababli, mamlakatda **MICE** turizmni qanchalik potentsialga ega ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘iladi. **MICE** turizm imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish uchun quyidagi hayotiy zarur platformalarni yaratish lozim bo‘ladi:

- qulay infratuzilma;
- davlatning qo‘llab-quvvatlovi;
- ishonchli statistik ma’lumotlar;
- malakali kadrlarni tayyorlash;
- mamlakatning imidjini yaratish.

Shaharlarning biznes infratuzilmasini besh yulduzli mehmonxonalar, biznes markazlar qurish, yuqori texnologiyali aloqa tizimlarini joriy etish va qulay transport harakatini yaratish orqali modernizatsiya qilish nafaqat tashqi turizm, balki ichki turizm imkoniyatlaridan ham keng foydalanishga yo‘l ochadi.

Davlat tomonidan **MICE** turizmni huquqiy jihatdan tartibga solish, bu boradagi qonunchilik bazasini yaratish, turizmning ushbu yo‘nalishiga imtiyoz va preferensiyalar berish natijasida O‘zbekistondagi biznes iqlimni yangi bosqichga olib chiqish, **MICE** turizmni rivojlanishiga va bu boradagi ishonchli ma’lumotlarning shakllanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, biznes turizm yo‘nalishida malakali kadrlarni tayyorlash ushbu soha rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa nafaqat sifatli xizmat ko‘rsatish, balki O‘zbekistonning dunyo turizm sanoatida o‘z o‘rnini topishga, o‘z imidjini yaratishiga imkon beradi.

Shuni aytishimiz mumkinki, **MICE** turizmni rivojlantirish orqali mamlakatimizning iqtisodiy o‘shish tendensiyalarini tezlashtirish, yangi ish o‘rinlarini

yaratish, dunyo mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli bitimlar tuzish va ularni realizatsiya qilish, ichki bozordagi kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarining jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjud. Shu sababli, mamlakatimizda **MICE** turizmni jozibadorligini oshirish bo‘yicha yanada jiddiy ishlarni olib borishimiz lozim bo‘ladi [5].

Conclusion: **MICE** turizmning asosiy maqsadi mamlakatda yagona sayyohlik makonini shakllantirishga hissa qo‘shib, jahondagi turistik yo‘nalishlar reytingida yuqori o‘rinlarni egallashdir. Biznes turizmni rivojlantirish uchun bir qancha takliflarni ko‘rib chiqish zarur:

Rivojlangan mamlakatlarning **MICE** turizmni rivojlantirishdagi bosqichlarini targ‘ib etish;

Katta 300-500 ta mijozlarni o‘ziga sig‘dira oladigan mehmonxonalarini qurish;
Xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash;

MICE turistik firmalarini ochish;

Firma xodimlarini xorijiy tillarda bemalol gaplasha olishini ta‘minlash; Transport sohasida biznes joylarini ko‘paytirish;

Havo yo‘llariga narx masalasini ko‘rib chiqish;

Xalqaro ko‘rgazmalar, konferensiyalar, uchrashuvlarni tashkil etish va yuqori darajada o‘tkazish;

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Farg‘ona viloyatlari va shaharlarida tashkilotchilarga hukumat tomonidan chet el davlatlari bilan aloqa o‘rnatishda yordam berish;

MICE turistik firmasining reklama masalasini ko‘rib chiqish.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, **MICE** turizm kichik hududlar uchun ham rivojlantirishning asosiy elementi hisoblanadi. Shaharlar o‘z hududining xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda turistik tadbirlarni yaratishlari lozim.

REFERENCES

- [1] G. Huang, "TSUE.UZ," «Development of MICE tourism in Uzbekistan», vol. 6. вып. 1, pp. m. 2., anp. 2022.
- [2] O. Wyman, "GLOBAL GUIDELINES FOR SAFE & SEAMLESS TRAVELLER JOURNEY," World travel and tourism council, pp. 10-12, 2023.
- [3] C. J. Middleton V, "Marketing in Travel and Tourism," Vols. Third Edition,, 2001.
- [4] H. S. ., Swarbrooke J, "Oxford," Business travel and tourism Butterworth-Heinemann, 2001.
- [5] R. F, "Tourism: practice, problems, perspectives," Reliable partnership in business execution , p. 10, 2010.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823553>

ISMOILXON FAQIRIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA YANGI VA YORQIN IJODKOR

Yakubova Safiya Hamdamovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDu Urgut filiali
Pedagogika va tillarni fakulteti o‘qitish assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Faqiriy ijodi adabiyotda yangilik kasb etishi. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o‘zbek adabiyotidagi mudhish bo‘shliqni to‘ldirib turganligi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham Shahrisabzda tug‘ilib, shu yerda umrguzaronlik qilgan bir necha shoirlar, adibu fozillar bo‘lgan. Ular sirasiga Mirzo Umrboqiy Shahrisabziy-Samarqandiy (1878-1957), Fayzullohxo‘ja Ravnaqiy (1892-1978), Ismoilxon Faqiriy-Shahrisabziy singari fozilu ijodkorlar bo‘lgan. Bu adiblar ichida Ismoilxon Faqiriy adabiy merosi muhim ahamiyatga egaligi va uning ijod namunalari adabiyot ahliga yetib borishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *yombi ijodkor, o‘roh, orifona mazmuni, oshiqona ruh, ma‘rifiy she‘riyat, devon adabiyoti, sohibi devon, bayoz tushunchasi.*

Якубова Сафия Хамдамовна

Филиал СамДу Ургут имени
Шарофа Рашидова
ассистент факультета педагогики и языков.

АННОТАЦИЯ

В данной статье творчество Фахири является новинкой в литературе, а его наследие своим орифонным содержанием и романтическим духом заполняет страшную брешь в узбекской литературе колониального периода. В конце 19-го и начале 20-го веков в Шахрисабзе родились и жили здесь несколько поэтов и писателей. Среди них добродетельными художниками были Мирза Умрбаки Шахрисабзи-Самарканди (1878-1957), Файзуллахходжа Равнаки (1892-1978), Исмаилхан Факири-Шахрисабзи и др. Среди этих писателей говорят, что литературное наследие Исмаила Хана Факири важно и что примеры его произведений дойдут до литературных людей.

Ключевые слова: создатель, значение орифоны, романтический дух, просветительская поэзия, деванская литература, владелец девана, концепция баяза.

Yakubova Safiya Khamdamovna,

Branch of SamDu Urgut named after

Sharof Rashidov

assistant at the Faculty of Pedagogy and Languages

safiyayakubova1231@gmail.com

ABSTRACT

In this article, Fakhiri's work is a novelty in literature, and his legacy, with its oriphonic content and romantic spirit, fills a terrible gap in Uzbek literature of the colonial period. At the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, several poets and writers were born and lived here in Shakhrisabz. Among them, virtuous artists were Mirza Umrbaqi Shakhrisabzi-Samarkandi (1878-1957), Faizullahkhoja Ravnaki (1892-1978), Ismailkhan Fakiri-Shakhrisabzi and others. Among these writers they say that the literary heritage of Ismail Khan Faqiri is important and that examples of his works will reach literary people.

Key words: *creator, meaning of oriphon, romantic spirit, educational poetry, Devan literature, owner of the devan, concept of bayaz.*

Faqiriy ijodi adabiyotda chinakam kashfiyotdir. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o'zbek adabiyotidagi mudhish bo'shliqni to'ldirib turadi.

Faqiriy hazratlari o'tgan asrda yashab ijod etgan bo'lsalarda, u zotning nomi va ijodi, Alloh taoloning inoyati ila istiqlol davrida yuzaga chiqdi. Sho'ro siyosatdonlari mumtoz shoirni xalqdan yashira olmadilar.

Shoir nomi davlat miqyosida ilk marta Shahrisabzning 2700- yilligiga bag'ishlangan anjumanida O'zbekiston birinchi Prezidenti tomonidan tilga olindi. Darhaqiqat, doktor, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas'udxon Ismoilning say'u g'ayratlari bilan Faqiriy nomi jahon qomuslariga kirgan edi. Bu ma'noda Faqiriy ularning kashfiyoti deb aytsak xato bo'lmas. So'nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e'tibor berilib kelinmoqda. XX asr o'zbek ma'rifiy she'riyatining yombi ijodkori, devon adabiyotining kamtar vakili, alloma va shayx, Naqshbandiya tariqati murshidi komili, Payg'ambar avlodi, zokir, ijodkor, shokir va sobir so'z san'atkori, Faqiriy-Shahrisabziy hazratlari o'zlarining bayozu g'azaliyotlari bilan adabiyotimizga yangitdan kirib kelmoqdalar.

Odatda, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi tashkilotlar odam savdosidan jabrlanganlarning himoyachisi sifatida ish olib borishlari, ularga huquqiy masalalar yuzasidan tegishli maslahatlar berishlari, tibbiy yordam ko'rsatishlari va davlat organlari bilan bu borada doimiy aloqada bo'lishlari lozim. Aynan mana shunday ishlarni amalga oshirish uchun tuzilgan nohukumat tashkilotlari mavjud. Amalda esa ular ko'pincha odam savdosiga qarshi kurashning oldingi qatorida turib harakat qilishlariga to'g'ri kelmoqda. Dastlab ularning ko'pchiligi og'ir ahvolga tushib qolgan ayollarga va muhojirlik masalalari bo'yicha qiynalayotgan insonlarga yordam ko'rsatish maqsadida tuzilgan edi. Nodavlat tashkilotlarining esa bu boradagi olib borayotgan faoliyati odam savdosidan jabrlanganlarga davlatlar tomonidan jiddiy e'tibor berilishida katga rol o'ynadi. Ularning ayrimlari bir qator davlat arboblari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining e'tiborini bu masalaga qaratishga va unga qarshi kurashda shaxsan ipggirok etishlariga muvaffaq bo'ldilar. Juda ko'p davlatlarda odam savdosiga qarshi kurashda nodavlat tashkilotlari bilan davlat organlarining hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgan va bu o'zining samarasini berayotir. Masalan, ayrim hollarda nodavlat tashkilotlarining vakillari politsiya bilan birga odam savdosidan jabrlanganlar joylashgan obektlarga birga chiqmoqdalar. Bu esa o'z navbatida jabrlanganlarning o'zlariga nisbatan bunday jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan ko'rsatma berishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, ko'pgina nodavlat tashkilotlari aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ham faol harakat qilmoqsalar. Bu esa odam savdosi bilan bog'liq murakkab vaziyatlarni oldini olishda katta rol o'ynamoqda.

Odam savdosiga qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri bu — xalqaro hamkorlik bo'lib hisoblanadi. Ushbu hamkorlikni tashkil qilish uchun avvalo milliy huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi lozimdir. O'zaro xalqaro xatti-harakatlar va xalqaro hamkorliklarsiz chegaralarni kesib o'tuvchi pinhoni savdo-sotiq, ayniqsa, odam savdosi kabi turli jinoyatlarni bartaraf etib bo'lmaydi.

Shuning uchun davlatlar transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda bir-birlariga o'zaro yordam berishlari lozimdir.

Ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi kelishuvlar sonining ortishi shuni ko'rsatmoqdaki, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining hamkorligi orqali transmilliy jinoyatlarga qarshi samarali kurash olib borish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish, jinoyatchilarni ushlab berish borasida tuzilgan maxsus shartnomalar, ikki tomonlama kelishuvlar ayrim hollarda o'zining samarasini berayotgan bo'lsa-da, BMT tomonidan qabul qilingan bir necha konvensiyalar davlatlar uchun odam savdosi bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan milliy qonunchilikni yaratishda xalqaro huquqiy baza bo'lib xizmat

qiladi. Shu bilan birga mazkur konvensiyalar odam savdosining turli ko‘rinishlariga qarshi kurashda o‘zaro hamkorlik qilishni xohlagan davlatlar uchun o‘ziga xos huquqiy asos ham hisoblanadi. Bu borada eng muhim hisoblangan konvensiyalarga:

BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

Odam savdosi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga jidsiy qaror qilgan davlatlar buning uchun «Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya va u bilan bog‘liq bo‘lgan «Odam savdosi to‘g‘risida»gi Bayonnoma va muhojirlar to‘g‘risidagi Bayonnomaning ratifikatsiya qilish va amalga oshirish lozim ekanligini anglab yetmoqdalar.

«Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy qoidalarini belgilab bersa, yuqorida tilga olingan ikki Bayonnoma ushbu jinoyatlarga qarshi kurashning aniq masalalariga bag‘ishlangandir. Mazkur bayonnomalarning har biri Konvensiya bilan birgalikda qo‘llanishi lozim.

«Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya va odam savdosi to‘g‘risidagi bayonnoma minimal standartlarni belgilab beradi. Ishtirokchi-davlatlar ushbu standartlar doirasida harakat qilishlari lozim. Shunday bo‘lsa-da, sharoit taqozosiga ko‘ra ular bundan boshqa choralarni ham qo‘llashlari mumkin. Masalan, odam savdosi to‘g‘risidagi milliy qonunchilikda bu boradagi jinoyatlar odam savdosi to‘g‘risidagi Bayonnomaning 3-moddasi a) bandida ko‘rsatilganidek belgilanishi lozim, lekin milliy qonun chiqaruvchi organ tomonidan boshqa jinoyat harakatlari ham bu ro‘yxatga kiritilishi mumkin.

«Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya va odam savdosi to‘g‘risidagi bayonnoma davlatlar uchun odam savdosi bilan bog‘liq muammolarni kompleks darajada hal qilish imkonini beradi. Bu muhim ahamiyat kasb etadi, chunki odam savdosi bilan bog‘liq harakatlari uyushgan jinoyatchilikning bir ko‘rinishi xolos. Ya‘ni, bu jinoyat shug‘ullanayotgan jinoyat guruhlari nafaqat odam savdosi, balki boshqa turdagi jinoyatlar, masalan, muhojirlarni noqonuniy olib kirish, narkotiklar, qurol-yarog‘ savdosi kabi jinoyatlar bilan ham shug‘ullanadilar. «Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya bu boradagi jinoyat-qidiruv va tergov harakatlarini hattoki, boshqa davlatlar hududida ham olib borish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Афанасьев В.Г. Человек в управлении обществом. – М., 2000*
2. *Васильев И.А. Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием. –М.: Изд-во МГУ, 1991.*
3. *Махмудова Д.А. Консультатив психология ва психокоррекция. . –Т.,2019.*
4. *Нартова-Бочавер С.К. Человек суверенный СПб ПИТЕР 2008.*
5. *Елисеев О.П. Практикум по психологии личности. – 2-е изд., испр, и перераб. – СПб.: Питер, 2007*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823809>

TALABALARNI VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

Djumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna

Termiz davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

E-mail: hjumayeva@list.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi globalshuv davrida yoshlarning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan variativ tahdidlar, talabalarni variativ tahdidlardan himoyalash mezonlari va ko'rsatkichlari yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu variativ tahdidlardan talabalarni himoyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya jarayoni, xalq pedagogikasi, sog'lom ijtimoiy muhitning o'rni, talabalarni variativ tahdidlardan himoyalash vazifalari ko'rsatib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** variativ tahdid, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya jarayoni, xalq pedagogikasi, sog'lom ijtimoiy muhit, oila, davlat va jamiyat.*

КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ЗАЩИТЫ СТУДЕНТОВ ОТ РАЗЛИЧНЫХ УГРОЗ

Джумаева Хулкархан Мухаммаджановна;

Термезский государственный университет,
доктор философии педагогических наук (PhD)

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются различные угрозы, оказывающие негативное влияние на моральное состояние молодежи в современную эпоху глобализации, а также критерии и показатели защиты студентов от различных угроз. Также в защите студентов от этих различных угроз показаны национальные и общечеловеческие ценности, образовательный процесс, общественная педагогика, роль здоровой социальной среды, задачи защиты студентов от различных угроз.

***Ключевые слова:** переменная угроза, национальные и общечеловеческие ценности, образовательный процесс, народная педагогика, здоровая социальная среда, семья, государство и общество.*

CRITERIA AND INDICATORS FOR PROTECTING STUDENTS FROM VARIOUS THREATS

Jumaeva Khulkarkhan Mukhammadjonovna;

Termez State University,

Doctor of Philosophy in Education (PhD)

ABSTRACT

This article highlights various threats that have a negative impact on the morale of young people in the modern era of globalization, as well as criteria and indicators for protecting students from various threats. Also, in protecting students from these various threats, national and universal values, the educational process, public pedagogy, the role of a healthy social environment, and the tasks of protecting students from various threats are shown.

Key words: *variable threat, national and universal values, educational process, folk pedagogy, healthy social environment, family, state and society.*

Ma'lumki, shaxs sifatida o'z-o'zini shakllantirayotgan, jamiyat rivojida qaysidir ma'noda ishtirok etayotgan talabalar ma'naviyatini yuksaltirish o'ta nozik, qiyin, mas'uliyatli masala hisoblanadi. To'g'ri, talabalar tarbiyasiga o'zbek xalqi barcha davrlarda jiddiy yondashib kelishgan. Biroq biz tarbiyalayotgan talabalar boshqa davrlardan farqli o'laroq, yuksak texnologiyalar, imkoniyatlar, turli g'oyalar, bir so'z bilan aytganda, ham salbiy, ham ijobiy xususiyatlar ega bo'lgan bir zamonda yashamoqdalar. Shunga ko'ra yoshlarimizni har qanday yot, begona tahdidlardan himoyalash har birimizning burchimiz hisoblanadi.

Talabalarni variativ tahdidlardan himoyalashning manbalari quyidagilardan iborat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya jarayoni, xalq pedagogikasi, sog'lom ijtimoiy muhit va hokazolar. Ushbu manbalar talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularga tayanmasdan jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Ya'ni:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar – insonparvarlik, axloqiylik kabi g'oyalardan tashkil topganligi va asrlar sinovidan o'tib, talabalar tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatish kuchiga ega ekanligi bois mazkur manbadan foydalanish hayotiy zaruriyatdir. Shubhasiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan talabalar ichki va tashqi tahdidlarga berilmaydi, e'tiqodi mustahkam, fidoyi, vatanparvar, mehnatsevar, ma'naviyati yuksak, axloqli avlod bo'lib voyaga yetadi.

2. Ta'lim-tarbiya jarayoni - shaxs shakllanishi va rivojlanishida mazkur manbaning o'zni nihoyatda katta. Negaki, ta'lim-tarbiya jarayonidagina shaxsning tabiat va jamiyat haqidagi dunyoqarashi, intellektual salohiyati, ma'naviyati, hayotiy emotsiyalari, e'tiqodi, qadriyatlarini, tafakkuri, qobiliyati, nutqi hamda jismoniy rivojlanishi yuksalib boradi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda shaxs jamiyatda o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi.

3. Xalq pedagogikasi yuqori tarbiyaviy ta'sir kuchga egaligi va hayotiy, ijtimoiy masalarning yechimini o'zida aks ettirganligi bilan qadr-qimmatga ega manba hisoblanadi. Xalq pedagogikasi, ayniqsa, talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda oila va vatanga nisbatan mehr-muhabbat, o'ziga bo'lgan ishonch, mardlik va jasurlik, fidoyilik, saxiylik, oliyjanoblikni tarbiyalaydi [2; 155-b.].

4. Sog'lom ijtimoiy muhit - boshqa manbalar qatori shaxs tarbiyasida sog'lom ijtimoiy muhitning ahamiyati nihoyatda muhim. Qachonki, shaxsni o'rab turgan muhit har tomonlama sog'lom bo'lsagina, talabalar o'z e'tiqodlari va qarashlaridan adashmaydilar hamda o'z oldilariga yuksak maqsadlar qo'yib, kelajak sari dadil qadam tashlaydilar. Aks holda nosog'lom muhit yoshlar hayotini izdan chiqaradi, jamiyatda o'g'rilik, kashandalik, firibgarlik kabi illatlar ko'payadi. Sog'lom muhitda kishilar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va ishonch asosida quriladi. Zero, sog'lom oila va sog'lom mahalla, sog'lom jamiyat davlatning mustahkamligini, farovonligini ta'minlab beradi.

Talabalarni variativ tahdidlardan himoyalashning tizimini aniqlab olish muhim, ya'ni talabalarni variativ tahdidlardan himoyalashga kimlar, qaysi tashkilotlar mas'ul va uning vazifalari nimalardan iborat.

Demak, bu tizimda davlat, jamiyat, oila, ta'lim muassasasi, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari ishtirok etadi va ular o'rtasidagi integratsiya ta'minlanishi kerak. Ta'kidlash joizki, bu tizim elementlari o'z vakolatlari doirasida barcha ishlarni to'laqonli bajarishlari va o'zaro bog'liq, bahamjihat faoliyat olib borishlari lozim. Masalan, oila nafaqat ta'lim muassasasi bilan, balki mahalla, jamoat tashkilotlari kabi tizimda ishtirok etuvchilar bilan hamkorlik qilishi shart. Ayni vaqtda esa, oila va ta'lim muassasasi o'rtasida integratsiya mavjud. Umuman olganda, tizim elementlarining har biri o'z oldiga alohida vazifalar qo'yimgo'i darkor, xususan:

Oila - jismoniy va ruhiy sog'lom, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni tarbiyalash bilan birga, ularni har qanday mafkuraviy g'oyalar tahdididan himoyalash hamda ularda sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, oila azaliy qadriyatlarga asoslangan holda yoshlarda turli tahdidlarga qarshi immunitetni hosil qilishda ishtirok etadi. Ayniqsa, oila talabalar ongi va amaliy

faoliyatiga turli yo‘l va usullar yordamida ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, biron-bir kasb egasini tarbiyalashni o‘z zimmasiga oladi.

Davlat va jamiyat talabalarning huquqiy, iqtisodiy va siyosiy muhofazasini amalga oshiradi. O‘z vakolati doirasida talabalarni turli tahdidlardan himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amaldagi ijrosini nazorat qiladi. Talabalarning ta’lim olishi, sport bilan shug‘ullanishi, madaniy dam olishi, davlat imtiyozlaridan foydalanishining huquqiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Eng muhimi davlat va jamiyat ijtimoiy buyurtmachi hisoblanadi.

Mahalla - davlat va jamiyat talablari asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ishtirok etadi. U talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ishsizlik va talabalar o‘rtasidagi ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish hamda talabalarni turli ma’naviy tahdidlardan himoyalashda oila, IIB va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

OTM - talabalarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish bilan birga, ularda ilmiy, siyosiy, axloqiy, mafkuraviy dunyoqarashni shakllantiradi. Shu bilan birga, u talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog‘lig‘ini mustahkamlash, turli ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqadi hamda amalda qo‘llaydi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi talabalarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash tizimidagi asosiy ijrochi hisoblanadi.

Jamoat tashkilotlari - talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, huquqiy madaniyatini shakllantirish, tibbiy bilimlarini rivojlantirish, ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlari ham talabalarni turli tahdidlardan himoyalash ishlarida ishtirok etadi.

Ushbu tizim elementlarining vazifalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning vazifalari o‘rtasidagi umumiy bog‘liqlik mavjud. Albatta, shunday bo‘lishi ham darkor. Zero, maqsad talabalarni vatanning fidoyi va tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan, e’tiqodi mustahkam shaxslarga aylantirish.

Biz taklif etayotgan modulda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashning shakllari, metodlari, yo‘llari, usullari aks etgan. Demak, bular quyidagilar:

Talabalarni variativ tahdidlardan himoyalash shakllari, albatta, shu kunga qadar talabalarga ta’lim-tarbiya berish jarayoni bir necha shaklda amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunga kunga kelib, uning yangi shakllari davr ehtiyojiga ko‘ra yaratilmoqda. Shunday ta’lim-tarbiya shakllaridan biri masofaviy ta’lim shakli. To‘g‘ri, masofiy ta’lim an’anaviy ta’lim-tarbiya berish shaklidan keskin farq qilsa-da, biroq uning o‘ziga xos imkoniyatlari mavjud. Mobil ta’limda bilim olish ko‘proq

talabani qanchalik tarbiyalanganlik darajasi bilan bog'liq desak, adashmaymiz. Ya'ni masofaviy ta'lim olish jarayonida ham talabalarning turli tahdidlar ta'siriga berilib ketish xavfi yuqori. Shu sabab biz pedagoglar ta'limni tashkil etishning bunday shakllaridan foydalanganimizda talabalarga internet va boshqa vositalardan foydalanish madaniyatini o'rgatishimiz, faqat bilim olish lozimligini qayta-qayta uqtirishimiz darkor. Albatta, bu jarayonda moduldagi tizimlar integratsiyasi o'z vazifasidagi ishlarni bajarishi darkor. Shu bilan birga masofaviy shakldan foydalangan holda, talabalar o'rtasida ichki tahdidlardan himoyalash mavzusidagi ko'rik-tanlov va ko'rgazmalarni o'tkazish maqsadga muvofiq. Bular "Biz tashabbuskor yoshlarmiz", "Odam savdosi-davr muammosi", "Biz terrorizm va diniy ekstremizmga qarshimiz", "Internet va men" kabi mavzulardagi maqolalar, insholar, rasmlar ko'rik-tanlovlar bo'lishi mumkin.

Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash yo'llari esa quyidagilar: davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar, ma'ruzalar, sayohatlar va boshqalar.

O'z navbatida himoya metodlari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: "Kontseptual jadval", "Assesment", "Insert", "Aqliy xarita", "Motivatsion rolik" va boshqalar.

Demak, biz taklif etayotgan modelda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash maqsadi, tamoyillar, manbalar, tizim, shakllar, usul va boshqalar aks etgan bo'lib, ular biz tadqiq etayotgan muammo samaradorligining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi 310-son "2022-2023-yillarda O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/6052527>

2. Богословский В.И., Аниськин В.Н., Ильмушкин Г.М. Педагогическая модель системы воспитания студентов в условиях холистической информационно-образовательной среды вуза вестник академии права и управления. № 1 (46) 2017.с.-153-161.

3. Джумаева, Х. М. (2018). Глобализация в образовании, её влияние на традиционные ценности. *Интернаука*, (46-2), 70-71.

4. Jumayeva, H. (2023). Talabalar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi variativ tahdidlar. *Interpretation and researches*, 2(1).

5. Эшкuvatov, Ш. М., & Джумаева, Х. М. (2016). Борьба за душу и сознание человека в современный период. *Евразийский научный журнал*, (2), 88-90.

6. Muhammadjonovna, J. H. (2023). Pedagogik jarayonda talabalarning ma'naviyatini invariativ tahdidlardan himoya qilish metodlari. *Наука и технологии*, 1(2).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823940>

O‘Q OTISH VA UNI O‘QITISH USLUBIYOTI FANINI OLIB BORISHDA PSIXOLOGIK KUZATUV TADBIRLARINI TASHKILLASHTIRISH VA O‘TKAZISH

Xikmatov Anvar Izatullayevich

Buxoro Davlat pedagogika instituti
harbiy ta’lim fakulteti maxsus tayyorgarlik
sikli dotsenti, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O‘q otish va uni o‘qitish uslubiyoti fani mashg‘ulotlarida psixologik kuzatuv tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazish” mavzusida ilmiy izlanish olib borilgan. Ushbu ilmiy izlanish doirasida jangovar vaziyatning harbiy xizmatchilarga ta’siri o‘rganilgan. Bundan tashqari, taktik bo‘g‘indagi bo‘linmalarning keskin vaziyatlarda o‘q otar qurollarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: Taktik o‘q otish, yaqin janglar, o‘q otar qurollar, keskin vaziyatlar, ahloqiy-ruhiy tayyorgarlik, jangovar immunitet.

Annotation: Following article represents a scientific study which was carried out on the basis of the topic “Organization of psychological observation activities in practical shooting session”. Within the framework of this scientific research the influence of the combat cases on military personnel was studied. In addition, research is being carried out on the peculiarities of firearms use in acute situations of units in the tactical link.

Key words: Tactical shooting, close combat, firearms, tense situations, moral and spiritual training, combat immunity.

Аннотация: В данной статье проведено научное исследование на тему “Организация и проведения психологических наблюдательных мероприятий по пулевой стрельбе”. В рамках данного научного исследования изучалось влияние боевой обстановки на военнослужащих. Кроме того, ведутся исследования особенностей применения огнестрельного оружия в сложных ситуациях подразделениями тактического звена.

Ключевые слова: Takticheskaya stryelba, blizhniy boy, ognestrelnoye oruzhie, napryazhennye situatsii, moralno-duhovnaya podgotovka, boevoy immunitet.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni kuchaytirish, davlatimiz chegaralari daxlsizligi va jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquqi va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning farovon hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jadal islohotlar olib borilishi davrida harbiy kadrlarning professionallik darajasini oshirishni etarli darajadagi jangovar shaylikni saqlashni eng zarur shartlaridan biri deb hisoblaydi. Qurolli Kuchlar o‘quv yurti ofitseri, chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchisi kabi shaxslar, o‘quv tarbiya jarayonida asosiy shaxs hisoblanadi, ular amaliyotda asosiy didaktik prinsiplar, ta‘lim berish va tarbiyalashning shakl va usullarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Mudofaa vazirligi ofitserlar tarkibining psixologik – pedagogik tayyorgarligiga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- uzviy komponentni birligi, ishga tashabbuskorlik bilan va ijodiy yondashish;
- ijtimoiy - siyosiy, tarbiyaviy jihatlarni hisobga olishni bilish;
- insonlarga turmushda namuna bo‘lish, ularning talab va ehtiyojlarini bilish;
- sabot bilan qo‘shinlarni boshqarish san‘atini egallash, oqilona tashabbuskorlik ko‘rsatish, ilmiy-nazariy saviyasini oshirish, jangovar va siyosiy tayyorgarlikni, qo‘shinlar jangovar shayligini va harbiy intizomni yuksaltirishda o‘z hissasini qo‘shish;

- bevosita o‘quv poligonlarida doimiy ravishda o‘rganish va boshqalarga o‘rgatish, zamonaviy jangovar texnika va qurollarni sabot bilan egallash;

- bo‘ysunuvchilar bilan sidqidildan ishlash, ularni o‘rgatish va tarbiyalash hamda otalaracha g‘amxo‘rlik ko‘rsatish;

- harbiy mojarolar hamda qurolli to‘qnashuvlar tajribalarini o‘rganib chiqish va o‘z amaliy faoliyatida uni ijodiy qo‘llashga intilish. Ushbu talablarni bajarish har bir harbiy xizmatchidan bilim, saviya va kuchli ruhiy tayyorgarlikni talab etadi.

Hozirgi kunga kelib mintaqamizda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib borishini kuzatishimiz mumkin. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat jangovar tayyorgarlik yo‘nalishidagi mavjud muammolarni tanqidiy baholab, uni zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Harbiy psixologiya va pedagogika – psixologiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, harbiy xizmatchilarning individual va ommaviy ravishda jangovar harakatlarga

tayyorgarlik ko‘rish va olib borish jarayonida sodir bo‘ladigan psixologik muammolarni o‘rganuvchi fan hisoblanadi.

Harbiy psixologiya va pedagogika – fan sifatida XX asr boshlarida qurolli kuchlar shaxsiy tarkibini tanlash, o‘qitish va lavozimlarga tayinlash uchun ommaviy tadqiqotlar olib borish natijasida paydo bo‘ldi.

Jangovar vaziyat insonni stress holatiga ta‘sirini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlar olib borishda ishtiroki asosan uchta muhim sabablarga bo‘linadi:

keng ijtimoiy sabablar (vatanga muhabbat, dushmanga bo‘lgan nafrat, harbiy burchga sadoqat);

jamoaviy–guruhiy sabablar (jangovar o‘rtoqlik, bir-birini qo‘llash, guruhning nafratiga uchrash);

yakka-shaxs sifatida sabablar (ajralib turishga intilish, mukofotga sazovor bo‘lish, o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish, moddiy manfaat ko‘rish).

Askarlardagi qo‘rquv, vahima va sarosimalar ularni qurolni samarali qo‘llashga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Jangda askarni noma‘lumlik qo‘rqitadi. Askar jangda ustalik bilan mohirona jang qila olmasligining sabablaridan biri, u mashg‘ulotlarda harakatlarini mexanik tarzda yodlab olgan (rolni yomon o‘ynaydigan aktyor kabi) va vaziyatdan kelib chiqib shaxsiy tashabbuskorlik ko‘rsatish va yuzaga kelgan kutilmagan vaziyatlar, falokatli onlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish lozimligini unutgan bo‘lishi mumkin.

Mashg‘ulotlar davomida nishongacha bo‘lgan masofani aniqlashda harbiy xizmatchilar 5 foiz xatoga yo‘l qo‘ysa (400 metr masofada 20 metrga teng), jangovar vaziyatlarda 10-20 foiz yetadi (400 metr masofada 80 metrga teng).

Rus-yapon urushi davrida har bir o‘ldirilgan askarga o‘rtacha 25-50 tagacha o‘q sarflangan bo‘lsa, Birinchi jahon urushida o‘q otish samaradorligi 3-5 foizni tashkil etgan. Ikkinchi jahon urushida esa har bir o‘ldirilgan askar uchun o‘rtacha 10 dona o‘q sarflangan bo‘lsa, XX asrning mahalliy urushlarida 50 taga yetdi. V‘etnam urushida esa AQSH askarlari tomonidan 200-400 o‘q sarflashga majbur bo‘lgan. Buning asosiy sababi o‘q otishga tayyorgarlikning past darajada ekanligi emas balki, harbiy xizmatchilardagi qo‘rquv va jangovar vaziyatni to‘liq idrok etmasligidadir.

AQSHlik mutaxassislarning xulosasiga ko‘ra 90 foiz harbiy xizmatchilar jangda aniq ko‘rinishga ega bo‘lgan qo‘rquvni his etadilar. Ularning 25 foizida qo‘rquv, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, va boshqa holatlar kuzatiladi. Taxminan 30 foiz harbiy xizmatchilar jangdan oldin, 35 foizi jang davomida va 16 foizi jangdan so‘ng qo‘rquvni his etadi. Harbiy xizmatchilarning faqat 20-25 foizi jangda zarur bo‘lgan faollikni

mustaqil tarzda bajaradilar (aniq mo'ljalga olib o'q uzish, jang maydonida manyovr qilish va h.k.).

Nemis olimi Ye.Dinter ta'kidlashicha harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarga moslashishi jarayoni taxminan 15-25 kun davom etadi va shundan so'ng ruhiy-psixologik imkoniyatlarning eng cho'qqisiga chiqadi. Dushman bilan bevosita to'qnashuvlarning 30-40 kunida ruhiy va jismoniy kuchlarda charchash belgilari kuzatiladi.

Agar jangning 45 kundan so'ng jangchi front ortiga yuborilmasa u o'zining psixofiziologik imkoniyatlariga ko'ra jangovar imkoniyatlarini yo'qotadi. Jangovar harakatlarda uzluksiz ishtirok etuvchi 98 foiz harbiy xizmatchilarda 35 kundan so'ng ruhiy tartibsizlik sodir bo'ladi.

Bundan tashqari, shaxsiy tarkibning psixologik holatiga ularning jang davomidagi hayoti va faoliyati (uyqu, ovqatlanish, ob-havo sharoiti, notanish bo'lgan joy) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida AQSH harbiy xizmatchilarining bir qismida ruhiy tartibsizlik sababli safdan chiqish holati kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1950-1953 yillarda Koreyada, 1965-1973 yillarda V'etnamda, 2003-2011 yillarda Iroqda, 2001-2021 yillarda Afg'onistonda ancha katta miqdorga yetdi. Ayniqsa tungi yoki ko'rinishi cheklangan sharoitlarda bunday yo'qotishlar ikki barobar ko'payishga olib keldi.

Jangovar harakatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jismoniy va ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lgan harbiy xizmatchilar jang davomida o'zlarini a'lo darajada his etib, jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishga hissa qo'shmoqdalar.

Bu borada Bobokalonimiz buyuk sarkarda Amir Temur bundan 600 yil oldin o'zining «Temur tuzuklari» da shunday misralar qoldirgan, -“Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”.

Yuqoridagilardan xulosa qilib ko'plab davlatlar armiyalarida harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini jangovar harakatlarga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda mashg'ulotlarni tashkillashtirish va olib borish yo'lga qo'yildi.

Jangovar harakatlarga xos bo'lgan hodisalar o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin:

O'q uchishi, turli snaryad va minalarni portlashi, yarador bo'lish, sherigi tanasining o'q tegib yoki portlash natijasida yarador yoki parchalanib halok bo'lishi, tinch aholi vakillari bo'lgan yosh bolalar, qariyalar yoki ayollarning parchalanib halok bo'lishi va ularning jasadlari, jangovar texnikalarning ishdan chiqishi yoki butunlay yakson etilishi, binolar va uylarning vayron bo'lishi, o'q-dori va snaryadlar va boshqa vositalar tutunlari, kuchli shovqin, tuproq yoki qum uyumining bosib qolishi, yong'in

chiqishi, turli darajadagi kuyish jarohatini olish, ko'p qon yo'qotish, o'q-dori va snaryadlar tugab qolishi, uzoq vaqt qor uyumi yoki nam, loy yerda qolish, sog'ligining yomonlashishi (tana harorati ko'tarilishi, bosh, bel, bo'yin, oyoq va ichki organlaridagi og'riqlar), ochlik yoki tashnalik va hokazolar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jangning dahshatli manzaralari insonning ko'rish, eshitish, tam va hid bilish hamda teri sezgisi orqali ta'sir etadi. Albatta tinchlik davrida bunday urushning dahshatli manzaralarini 100 foiz yaratish mushkul, lekin ulardan ayrimlarini o'q otish mashqlarini olib borish davomida yaratish va harbiy xizmatchilarimizda jangovar immunitetni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida qo'llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.Г. Караяни, *Американская военная психология как область специальной практики*// А.Г. Караяни, Ю.М. Караяни, Ю.П. Зинченко// *National psychological journal* [Режим доступа] <http://www.psy.msu.ru/science/npj/> - дата обращения 26.04.2022 г.

2. [Режим доступа] https://studme.org/235174/psihologiya/obraz_psihologicheskiy_resurs_uchastnika_boevykh_deystviy – дата обращения 26.04.2022 г.

3. К.Макнаб, *Психологическая подготовка подразделений специального назначения*// М.: 2015 - С. 142-148.

4. А.В.Маркин, *Основы тактической подготовки современного солдата*// М.: 2013 - С. 156-197.

5. Владимир Фурман, адвокат Legal House [Режим доступа] https://jurliga.ligazakon.net/ru/news/210201_boevoy-immunitet-obzor-izmeneniy-v-zakonodatelstvo -дата обращения 26.04.2022 г.

6. Д. Болелли, *Иммунитет боевого страха // Боевые искусства как способ проживания жизни и построения характера*// Д.Болелли. М.: - 2109, 246 с.

7. А.И.Хикматов, «О'q otish va uni o'qitish uslubiyoti» darslik 2023 yil.

8. Э.Ш.Ниязов ва А.И.Хикматов, «Ўқ отиши ва уни ўқитиши методикаси» ўқув қўлланма 2022 йил.

9. L.L.Nurillayev, «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» darslik 2023 yil.

10. F.B.Rahimov, «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» darslik 2021 yil.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845841>

KORPORATIV TADBIRLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA TURLARI

Abdiyev Izzatbek Risqiboyevich

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada ommaviy tadbirlarning muhim tadbir turlaridan hisoblangan korporativ tadbirlar haqida, uning turlari va jamoadagi xodimlarga qanday ijobiy ta’sirlar ko’rsatishi, shu bilan birga tadbirni tashkillashtirishdan kutiladigan afzalliklar va natijalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Korporativ tadbirlar, xodim, jamoa, kompaniya, biznes, trening, ziyofat.*

Аннотация. *В статье рассматриваются корпоративные мероприятия как важные виды общественных мероприятий, их разнообразие, положительное влияние на сотрудников в коллективе, а также преимущества и результаты, ожидаемые от организации таких мероприятий.*

Ключевые слова: *Корпоративные мероприятия, сотрудник, команда, компания, бизнес, обучение, вечеринка.*


Abstract. *The article discusses corporate events as important types of public gatherings, their variety, positive impact on employees within the community, as well as the benefits and outcomes expected from organizing such events.*

Keywords: *Corporate events, employee, team, company, business, training, party.*

"Korporativ tadbirlar" – bu xodimlarni birgalikda vaqt o‘tkazishlariga, ularni birlashtirishga va bir-birlarini yaxshiroq bilishga yordam beradigan barcha jarayonlardir. Jumladan, ziyofatlar, sayohatlar, sport musobaqalari, kasb tadbirlari ularning asosiylaridan hisoblanadi [1].

Korxonada jamoaning faoliyati faqat mehnat bilan cheklanmaydi, balki odamlar bir-biri bilan muloqot qiladilar, rasmiy yoki shaxsiy asosda birlashadilar. Ularni birlashtirish va ijobiy jamoaviy ruhni shakllantirish uchun maxsus tadbirlar kerak. Shu asosda korporativ tadbirlarning qanday turlari borligini va ular qanday formatlarda optimal tarzda o‘tkazilishini ko‘rib chiqish lozim.

Korporativ tadbirlarni uch turga bo'lish mumkin. Bunda bitta korporativ tadbir bir nechta maqsadlarni ko'zlagan holda xarakteristikalarini bo'yicha ikki yoki uchta turga mos kelishi mumkin. Bunday holda, korporativ tadbirning gibridd turi haqida ta'kidlash o'rinlidir [4].



1-grafik. Korporativ tadbirlarning rahbar va jamoaga ijobiy ta'sirlari

Birinchi turi. Trening tadbirlari.

Ikki guruh muammolarini hal qilish orqali jamoaning eng samarali ishini ta'minlashga qaratilgan:

- o'rgatish, ya'ni maxsus bilimlarni berish, kengaytirish va chuqurlashtirish;
- kompaniyaning biznes jarayonlarida zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish.

Masalan, savdo xodimi mijozlar bilan muloqot qilishi kerak. Bunday mas'uliyat bilan u mahsulotlar va ularni sotish shartlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi o'rinlidir. Shuningdek, ushbu sahifadagi mutaxassis taklifni tomoshabinlar uchun iloji boricha qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim eta olishi, e'tirozlarga xotirjam javob berishi va salbiy tomonlarini tenglashtirishi kerak. Ya'ni, insonga ham sof professional, ham umumiy hissiy ko'nikmalar kerak. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, mijoz korporativ trening variantlarini tanlashi mumkin.

Birinchi turdagi korporativ tadbirlarning senariysi mukammal ishlanishi, tadbirning rasmiy va ko'ngilochar qismlari aniq ajratib olinishi kerak. Buni qilish juda qiyin bo'lsa-da, uni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilishning eng samarali usuli - shunga o'xshash loyihalar bilan muntazam shug'ullanadigan va dasturni yetarlicha rasmiy va ishbilarmonlik aloqalarini samarali tashkil etish uchun yuqori malakali mutaxassisni jalb qilishdir [2].

Bunday tadbir faqat biznes (forum, biznes treningi va boshqalar) yoki norasmiy maqsadlarda tashkil etilishi mumkin, lekin shunga qaramay bu tadbirlar jiddiy maqsadlarni (biznes o'yini, professional mavzu bo'yicha qidiruv va boshqalar) ko'zda tutadi.

Ikkinchi turi. Bayramlar.

Bu xodimlar uchun korporativ tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan biridir. Bunday tadbirlarning maqsadi quyidagilarga mo'ljallangan:

- jamoani xursand qilish;
- yoqimli dam olish;
- norasmiy muloqot qilish.

Biroq, yaxshi tashkil etilgan bayram jamoaning birligi va xodimlarning korporativ boshqaruvga va umuman korxonaga sodiqligini oshirish muammosini ham muvaffaqiyatli hal qiladi.

Ushbu turdagi korporativ tadbir davlat va kasb bayramlarini, kompaniya va xodimlar hayotidagi muhim sanalarni, masalan, kompaniya yoki uning rahbarining yubileyini, xodimga faxriy unvonni berishni va hokazolarni nishonlashga yordam beradi.

Uchinchi turi. Jamoa tuzish.

Tashkilotlardagi ushbu turdagi korporativ tadbirlarda asosiy maqsad jamoani shakllantirishdir. Jamoa qurish natijasida hamkasblar bir-birini yaxshiroq bilishi, o'zaro tushunishi, yetakchilarni aniqlab olishlari va harakatlarini bir maqsadda muvofiqlashtirishlari mumkin bo'ladi.

Odamlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash tufayli jamoa birlashadi, kompaniyada maxsus korporativ madaniyat shakllanadi va bu tashkilotning ishi va imidjiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Hech qanday holatda kompaniya xodimlarini korporativ tadbirlarda qatnashishga majburlamaslik kerak. Bu fakt ongsiz ravishda xodimlarda ichki norozilikni keltirib chiqaradi. Ushbu tadbirni tashkil qilishda menejerning niyatlari qanchalik yaxshi bo'lmasin, kompaniya xodimlarining ishtiroki ixtiyoriy bo'lishi kerak. Bu ularga o'zlarini erkin his qilishlariga imkon beradi, bu esa xodimlarning ko'proq ochilishiga va yashirin qobiliyatlari va imkoniyatlarini ko'rsatishiga yordam beradi. Ishchi xodimlarning fikr va istaklarini tinglash juda muhim, bu butun jamoada do'stona va ishonchli munosabatlarni o'rnatish va saqlashga yordam beradi [3].

Korporativ tadbirlar tashkillashtirish turiga ko'ra bir qator guruhlariga bo'lingan:

1. Ziyofat tadbirlari. Ular dastur va ko'ngilochar tadbirlarga ega bo'lgan ziyofat bo'lib, jamoani shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi. Odatda restoranlar va banket zallarida o'tkaziladi.

2. Shahardan tashqari tadbirlar. Ular ko'pincha shahar atrofidagi pansionatlarda, mehmonxonalarda yoki oddiygina tabiatda o'tkaziladigan sport musobaqalari bo'lib, jamoani shakllantirish va xodimlarning yashirin qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan.

3. Oilaviy voqealar. Ular bayramni ifodalaydi, uning o'ziga xos xususiyati tashkilot xodimlarining oila a'zolarini taklif qilishdir. Bunday bayramning afzalligi ish va oila o'rtasidagi ziddiyatni yumshatish uchun hisoblanishi mumkin.

4. Kontseptual faoliyat. Ular korporativ afsonaga e'tibor qaratib, katta byudjetga ega bo'lgan keng ko'lamli bayramni ifodalaydi.

5. Taqdimot. Yangi bo'lim, filial va boshqalarni ochish va yangi mahsulotlarni chiqarishga bag'ishlangan. Buning asosi - sheriklar, mijozlar va matbuotga e'tibor [5].

Xulosa. Umuman olganda, korporativ tadbirlar zamonaviy kompaniyalar hayotining ajralmas qismi bo'lib, jamoaviy ruhni shakllantirish, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va kompaniya brendini mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. Bunday tadbirlarning asosiy turlariga konferentsiyalar, seminarlar, treninglar, korporativ partiyalar va jamoaviy tadbirlar kiradi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va maqsadlarga ega, ammo umumiy xususiyat - bu ish muhitini yaxshilash va kompaniyaning umumiy maqsadlariga erishish istagi. Korporativ tadbirlarni rejalashtirishdagi xilma-xillik va moslashuvchanlik kompaniyalarga o'z xodimlarining noyob ehtiyojlariga moslashishga va muvaffaqiyatga erishish uchun o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Корпоративы: почему важно проводить их даже в небольшом коллективе и как / [Elektron resurs]. URL – Havolaga kirish: <https://vc.ru/flood/717504-korporativy-pochemu-vazhno-provodit-ih-dazhe-v-nebolshom-kollektive-i-kak>
2. Шимилов С. Корпоративная культура традиции и современность. - М: Справочник Кадровика, 2000. №5-С.32
3. Грушин Б. Творческий потенциал свободного времени. - М: Профиздат, 1980. С 6-25.
4. Виды корпоративных мероприятий / [Elektron resurs]. URL – Havolaga kirish: <https://alexgrim.ru/blog/vidy-korporativnyh-meropriyatiy/>
5. Волостнова А.О. Корпоративные мероприятия в жизни организации. «Экономика и социум» №5(36) 2017 – С-867

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Mirzokulova, X. N. (2024). WORKING WITH MULTILEVEL ESP GROUP STUDENTS. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 4–7. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823517
2	Rahmanov, U. X., & Jo'rayeva, F. B. qizi . (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA AYOLLAR HUQUQLARI. Innovative development in educational activities, 3(5), 8–11. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823530
3	Egamberdiyev, S. S. o'g'li ., & Matkabulova, D. X. (2024). MICE-TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH SALOHIYATI. Innovative development in educational activities, 3(5), 12–19. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823544
4	Yakubova, S. H. (2024). ISMOILXON FAQIRIY O'ZBEK ADABIYOTIDA YANGI VA YORQIN IJODKOR. Innovative development in educational activities, 3(5), 20–27. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823553
5	Kudbiyev, D., & Mamarasulov, D. A. ugli . (2024). PREPARATION OF REPORTS FOR THE FIRST TIME ACCORDING TO INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 28–37. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823600
6	Mavlanova, Z. T. (2024). ORGANIZATIONAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF A HEALTHY AND CREATIVE ENVIRONMENT IN THE MANAGERIAL ACTIVITIES OF LEADERS. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 38–40. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823618
7	Хасанов, Ш. Б. (2024). ТИББИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИНГ ТАЛАБАЛАР ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ. Innovative development in educational activities, 3(5), 41–47. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823636

8

Bektemirov, A., & Gadoev, B. (2024). DIFFERENT ASPECTS OF TRADITIONAL AND ISLAMIC BANKING SYSTEMS IN MODERN FINANCIAL RELATIONS. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 48–50. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823687>

9

Kholieva, A. (2024). THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN REVOLUTIONIZING THE TOURISM INDUSTRY OF UZBEKISTAN. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 51–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823731>

10

Maxmudova, D. A., & Mirpulatova, S. M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA YOSH MUTAXASSISLARNING KASBIY ADAPTATSIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 3(5), 57–60. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823764>

11

Maxmudova, D. A. (2024). ODAM SAVDOSI MUAMMOSI YECHIMLARIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 3(5), 61–64. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823784>

12

Djumayeva, X. M. (2024). TALABALARNI VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI. Innovative development in educational activities, 3(5), 65–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823809>

13

Xikmatov, A. I. (2024). O'Q OTISH VA UNI O'QITISH USLUBIYOTI FANINI OLIB BORISHDA PSIXOLOGIK KUZATUV TADBIRLARINI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH. Innovative development in educational activities, 3(5), 70–74. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823940>

14

Abdiyev, I. R. (2024). KORPORATIV TADBIRLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA TURLARI. Innovative development in educational activities, 3(5), 75–79. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845841>